

**MAKTAB O'QUVCHILARIGA ARUZ VAZNINI O'RGATISHDA  
TURLI METODLARDAN FOYDALANISH**

*Djumayeva Baxtiniso To'raqulovna*

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti  
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi,  
TerDPI 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada she'riy vaznlar, badiiy san'atlar, ularni turlarga ajratishda qaysi xususiyatlari ahamiyat berilishi, badiiy san'atlarni o'rganishda turli pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati yuzasidan ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** vazn, aruz, barmoq, rukn, taqte', afoyl, qofiya, raviy, lafziy san'atlar, ma'naviy san'atlar, lafzi-yu ma'naviy san'atlar, innovatsiya, pedagogik usul va metodlar.

Bilamizki, badiiy tasviriy vositalar asosida yuzaga chiqadigan turli she'riy san'atlar nazmnинг eng muhim unsurlaridan biridir. O'quvchi bu kabi badiiy san'atlardan qay darajada yaxshi xabardor bo'lsa, she'rni tushunishi va undan o'zgacha zavq tuya bilishi shu qadar osonlashadi. Bunga erishish, ya'ni o'quvchilarni she'riyatga, ayniqsa, aruz vazniga oshno qilish uchun pedagoglar bir qancha innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Ushbu maqolada aynan shu mavzu yuzasidan izlanish va o'rganishlarimiz asosida olgan bilimlarimiz va xulosalarimizni bayon etamiz.

Avvalambor, she'riy sistemalar haqida to'xtalsak. Hammamizga ayonki, o'zbek adabiyotida ijodkorlar, asosan, barmoq, aruz, va erkin she'riy sistemalarida ijod qilishadi. Ajdodlarimiz X asrlargacha barmoq vaznidan foydalanishgan. Adabiyotshunos H.Umurov: "Har bir she'riy sistema xalq tilining ichki imkoniyatlari, qudrati bilan yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlari, grammatik stilistik qurilishi – barmoqni milliy she'riy sistema sifatida bunyodga keltiradi"<sup>i</sup>, degan edi.

O'zbek she'riyatidagi ikkinchi she'riy san'at – aruz. U arab adabiyotiga xos bo'lib, X-XI asarlarda turkiy she'riyatga kirib kelgan. Aruzning ilk namunlalarini Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida uchratsak, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"i o'zbek she'riyatidagi aruzda yozilgan dastlabki asar ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu vaznning o'zbek adabiyotida eng ko'p qo'llangan davri o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobolarimiz nafaqat aruzda ijod qilgan, balki aruz nazariyasi haqida "Mezon ul-avzon", "Muxtasar" nomli asarlarni yozib qoldirganlar. Shu o'rinda aruzning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalsak.

Aruz – o‘ziga xos ritmga, musiqiy ohangga tayanadigan vazn. Bu vaznda ijod qilayotgan ijodkor, uni o‘rganayotgan o‘quvchi musiqiy ritmni his qilishi muhim. E’tibor beradigan bo‘lsak, aruzda ijod qilgan ajdodlarimizning aksariyati musiqadan yaxshigina xabardor bo‘lishganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, Alisher Navoiyning musiqashunoslikda shogirdlar yetishtirgani, Zahiriddin Muhammad Boburning “Musiqa ilmi” nomli asar yozganini eslash kifoya. Aruzning barmoq vazniga o‘xhash jihatlari ham bor, albatta. Shunisi aniqki, barmoq vazni misralardagi bo‘g‘inlar soniga asoslanadi. Aruz vazni uchun esa bo‘g‘inlar miqdori bilan birga uning sifati ham muhim. Aruzda hijo deb nomlanuvchi atama barmoqdagi bo‘g‘inga yaqin. Yaqin deyishimizning boisi shuki, hijo to‘liq bo‘g‘inni anglatolmaydi. Negaki, hozirgi o‘zbek tilining bo‘g‘in qoidalari aruzga xos bo‘linishga har doim ham to‘g‘ri kelavermaydi. Aruz arab tili grammatikasiga oid vasl, mad kabi qoidalarga bo‘ysunadi. Shu sababli maktab o‘quvchilariga aruz nazariyasiga doir bilimlarni berishda pedagoglar qiyinchiliklarga duchor bo‘lishadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, o‘quvchilarga aruz vazni: rukn, taqte’, afoyil kabilarni tushuntirishda amaliyotdan nazariyaga borish yaxshi samara beradi. Buning uchun dastlab o‘quvchilarga aruzga doir she’rlarni ohangga tushib o‘qishni o‘rgatish, so‘ng shu she’r asosidagi mumtoz ijroni eshitish muhim. She’r o‘qish qoidasini o‘rgangach, bosqichma-bosqich aruz vazni tahliliga o‘tilsa, o‘quvchilar zerikmasdan, fandan bezmasdan, qiziqish bilan shug‘ullanishadi. Ishni maktab darsliklarida berilgan ramal va hazaj bahrlariga oid, notanish so‘zları kamroq uchraydigan, osonroq tushuniladigan ruboiy, tuyuq, kichik hajmli g‘azallardan boshlash maqsadga muvofiq. Avvalo, she’rni har to‘rt bo‘g‘inda kichik to‘xtam bilan o‘qishga o‘rgatamiz, so‘ng she’rning rukni, taqtesi va afoyili, vaznini aniqlash bosqichiga o‘tiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Yaxshilig” radifli g‘azali tahliliga e’tibor bering:

Kim ko‘rubdur/, ey ko‘ngul, ah/li jahondin/ yaxshilig‘,  
Kimki, ondin/ yaxshi yo‘q, ko‘z/ tutma ondin/ yaxshilig‘.

G‘azal matlasini ruknlarga ajratib chiqdik. Uning taqtesi quyidagicha: -v - - (foilotun). Bundagi - belgisi cho‘ziq hijoni, v belgisi esa qisqa hijoni anglatadi. O‘qituvchi matlani ikki marta fo-i-lo-tun (tam-ta-tam-tam) musiqiy ohangida o‘qigach, o‘quvchilar bilan birga jo‘r bo‘lib bir necha bor takrorlaydi. Shundan so‘ng Ma’murjon To‘xtasinov ijrosidagi “Yaxshilig” g‘azali asosidagi mumtoz qo‘sinqi eshitish tavsiya qilinadi.

O‘quvchilarda g‘azalning ohangi, musiqiy ritmi yuzasidan tushuncha paydo bo‘lgach g‘azal vaznini aniqlash ishini bajaramiz. G‘azalning afoyili – foilotun, shuning uchun uning bahri ramal hisoblanadi. Chunki ramal bahri foilotun rukniga tayanadi. Baytda foilotun rukni 8 marta takrorlanmoqda, sakkiz arabchada musamman

demakdir. Demak, g‘azal **ramali musammani mahzuf** ruknida yozilgan. Mahzuf atamasi nega qo‘llanayotganiga izoh beramiz: g‘azal misralarida 1-,2-,3- ruknlar to‘rt hijodan iborat, ya’ni foilotun; 4-rukn esa 3 hijodan tashkil topgan, ya’ni foilun. Shu sababli solim emas, balki mahzuf atamasini ishlatdik.

G‘azal vazni 1-baytda aniqlanadi va g‘azal so‘nggigacha xuddi shu vaznda davom etadi. Endi g‘azalning qofiya, radif, she’riy san’atlariga e’tibor beramiz. G‘azalda yaxshilig‘ so‘zi radif – qisqa radif bo‘lib, jahondin, ondin, zamondin, jondin, yamondin, falondin kabi so‘zlar qofiyaga olingan. Qofiyadosh so‘zlarda asosdagi n tovushi – raviy, raviydan so‘ng qo‘srimcha qo‘llangani uchun mutlaq qofiya hisoblanadi.

Baytda ey ko‘ngul undalmasi orqali nido, yaxshi va yaxshilig‘ so‘zları (asosdosh so‘zlar) yordamida ishtiqoq, so‘zlar takrori bilan takrir san’ati yuzaga chiqqan.

Gar zamonni nafy qilsam ayb qilma, ey rafiq,  
Ko‘rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig‘!

Bu baytda ey rafiq undalmasi bilan nido, zamon so‘zi takrori asosida takrir san’ati yuzaga chiqqan.

Shu tariqa har dars davomida bir nechta badiiy san’atlar haqida ta’lim oluvchilarda tushuncha paydo bo‘ladi. Keyingi baytlar o‘quvchilarga bo‘lib beriladi va uyga vazifa sifatida bajarish topshiriladi.

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma,  
Kelmadi jonimg‘a hech oromi jondin yaxshilig‘.  
Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yamonliq asru ko‘p,  
Emdi ko‘z tutmoq ne ma’ni har yamondin yaxshilig‘?  
Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q  
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig!  
Yaxshilig‘ ahli jahonda istama Bobur kibi,  
Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. H. Umurov. Adabiyot qoidalari. Toshkent, 2003.
2. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2012.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Toshkent, 2000.
4. Sarimsoqov B. O‘zbek adabiyotida sa’j. Toshkent, 1978.
5. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent, 2002.